
MUROJAAT

Hurmatli fuqarolar!

Siz va yaqinlaringiz bilan yong'in, is gazidan zaharlanish hodisalari sodir bo'lmashligi uchun Yozyovon tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi ogohlantiradi!

Xonalarni isitish maqsadida nostandart, qo'lbola, ya'ni, temirdan yasalgan hamda elektr isitish pechlaridan foydalanmang.

Xonadon va ish joyingizdagi isitish moslamalarini nazoratsiz va qarovsiz qoldirmang.

Isitish pechlarining mo'ri (dudbo'ron)larini to'g'ri va mustahkam o'rnatilganligiga ahamiyat qarating, ya'ni, pechda yonayotgan gaz, o'tin, ko'mirdan ajralib chiqayotgan gazlarni tashqariga to'liq chiqib ketayotganligiga va mo'rining tashqariga chiqib turgan qismi tepaga qaragan xolda bo'lishiga e'tibor qarating, mo'risi yo'q pechlardan foydalanish fojea sababchisidir.

Xonada gaz hidini sezsangiz, chiroqni yoqmang, agarda yoniq bo'lsa, o'chirmang, gaz to'lgan xonani shamollating.

Yosh bolalarni uyda nazoratsiz, yolg'iz qoldirmang.

[Facebook](#), [Telegram](#)

2021-02-02 14:40:56